

**2-SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING
HISOBBLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**

Navoiy davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasи katta

o'qituvchisi,f.f.f.d(PhD)

Jurayeva Gulshanoy Turdiyevna

"Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 4-kurs talabasi

Safartosheva Barchinoy Aktam qizi

E-mail: barchinoysafartoshova0708@gmail.com

[Tel:+998770400396](#)

Annotatsiya: Ushbu tezisda 2-sinf o'quvchilarining hisoblash ko'nikmalarini rivojlanirish, og'zaki hisoblash ko'nikmalarini shakllantirish va matematika faniga oid bo'lgan qiziqishlarini oshirishga qaratilgan metodlarning umumiy tahlili keltirildi.

Annotation: This thesis presents a general analysis of methods aimed at developing 2nd grade students' calculation skills, forming verbal calculation skills, and increasing their interest in mathematics.

Kalit so'zlar: Fikrlash qobiliyati, mantiqiy fikrlash, interfaol metod, hisoblash ko'nikmasi.

Key words: Thinking skills, logical thinking, interactive method, calculation skills.

Bugungi kunda hisoblashning ahamiyati har qachongidan ham yuqori. Una nafaqat fanlar asosida, balki har bir kishining hayotiy qarorlarida, kasbiy faoliyatida, ijtimoiy rivojlanishda beqiyos rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematika o'qitish jarayonida fikrlash qobiliyatlarini o'stirishning nazariy asoslari matematik masalalar yechish - matematika o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan matematikani o'zlashtirishni tasavvur

ham etib bo'lmaydi. Shu boisdan hisoblash ko'nikmasini erta yoshdan boshlab rivojlantirish, uni har tomonlama mustahkamlash zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda bu ko'nikmaning shakllanishi o'quvchilarning o'quv faoliyati, mantiqiy fikrlashi va amaliy hayotida mustaqil harakat qilish qobiliyatiga asos bo'ladi. Matematik ta'lim sohasi bo'yicha standart ko'rsatkichlar bolalarda natural sonlar va nol to'g'risida tasavvurni shakllantirish, puxta hisoblash ko'nikmalarini hosil qilish, amaliy masalalarni yechishda natural sonlarni va arifmetik amallarni qo'llay olishga o'rgatish, eng sodda geometrik shakllar hamda og'zaki hisoblash va matematik munosabat belgilaridan foydalana olish malakasini hosil qilish nuqtai nazaridan belgilandi. Og'zaki hisoblashga doir mashg'ulotlarning samaradorligi mashqlarning hajmi va mazmunigagina emas, balki ularning berilishi va tekshirilishi, o'quvchilarning bilimini sinash, og'zaki va yozma mashqlarning almashtirib turilishiga ham bog'liqdir. Bundan tashqari, og'zaki hisoblash malakalarining uzlucksiz takomillashib borishi uchun og'zaki va yozma hisoblash usullarini qo'llashda to'g'ri munosabat o'rnatish, chunonchi og'zaki hisoblash qiyin bo'lgandagina yozma hisoblash zarur. O'quvchilarning topshiriqni eshitib qabul qilishlarida o'qituvchi topshiriqni o'qib beradi, ular esa eshitadi. Bunda asosiy kuch xotiraga qaratiladi, bunday mashqlar juda foydali bo'lib, eshitish xotirasini rivojlanadiradi. Bolalarning og'zaki hisoblash malakalarini har doim tekshirib turish kerak. Og'zaki hisoblashga doir mashqlarni birinchi darslardanoq kiritilsa, samarasi ancha yuqori bo'ladi. O'quvchilarning og'zaki hisoblash malakalari turli-tuman mashqlarni bajarishlari jarayonida shakllanadi. Ushbu ko'nikmalarni shakllantirish uchun zamonaviy metodlardan foydalanish o'rnlidir. Quyida 2-sinf o'quvchilarining hisoblash ko'nikmalarini rivojlaniradigan metodlarning qo'llanishi va mohiyati haqida so'z yuritamiz.

“Zinama – zina “metodi

Ushbu metoddan o'quvchilarning hisoblash ko'nikmalarini shakllanganligini aniqlashda foydalanishimiz mumkin. O'quvchilarni matematik hisoblash ko'nikmali qay darajadaligini tezkor savollar orqali bilib olamiz. Bunda mavzuga

doir misollar ketma-ket yoziladi, misollarga to‘g‘ri javob bergan o‘quvchilar keyingi zinaga ko‘tarilishadi.

MARRA	
5-zina	69-24=
4-zina	23+53=
3-zina	89-61=
2-zina	48-22=
1-zina	41+51=

“Juftini top” o‘yini

Bu o‘yinli texnologiya orqali o‘quvchilarda sodda hisoblash ko‘nikmasini rivojlantirishimiz mumkin. Bunda barcha amallarda juftini topgan holda natijani tezroq va soddaroq qo‘lga kiritamiz. Bunda o‘quvchilar ortiqcha aqliy zo‘riqishdan holi bo‘lishadi va vaqtdan unumli foydalanishadi.

Masalan, **12+24+28+16=** misoli berilgan bo‘lsa, buni qulay usulda hisoblaymiz:

1. **12+28=40** (12 sonining juftini topib oldik, ya’ni 28 ni);
2. **24+16=40** (bunda ham 24 sonining juftini topdik, ya’ni 16 ni);
3. **40+40=80** (so‘ngida ikki oson topilgan yig‘indi qo‘shiladi).

Xususiy yo‘llar

Yuqoridagi o‘yinlardan tashqari hisoblashning xususiy yo‘llari ham mavjud. Bu yo‘llar orqali misollarni yanada tezroq ishlashimiz mumkin. Bunday usullardan foylanish orqali o‘quvchilarda matematikaga bo‘lgan qiziqishlari yanada oshadi. Quyida ushbu yo‘llardan bir nechtasini ko‘rib chiqsak.

1. **5** sonini boshqa raqamga ko‘paytirishning sodda usuli. **5** sonini istalgan juft songa ko‘paytirsak o‘sha sonning yarmi va o‘ng tomonidan **0** (nol) yozilsa natija chiqadi.

Masalan, 5 sonini 84 soniga ko‘paytirsak, bunda 84 sonining yarmi va o‘ng tomonidan **0** (nol) raqami yoziladi.

5	\times	84	=	420
5	\times	26	=	130
5	\times	90	=	450
5	\times	30	=	150
5	\times	8	=	40
5	\times	12	=	60

2. Bir xonali sonlarni **9** ga, ikki xonali sonlarni **99 ga**, uch xonali sonlarni **999** ga ko‘paytirishning qulay usuli bilan tanishamiz.

a) Bunda istalgan bir xonali sonni 9 ga ko‘paytirish uchun o‘sha sondan **1** ni ayirsak natijaning o‘nlar xonasidagi raqam hosil bo‘ladi, hosil bo‘lgan sonni **9** dan ayirsak natijaning birlar xonasidagi javob chiqadi.

Masalan, $4 \times 9 =$

1. 4-1=3

2. 9-3=6

Javob: **36**

Ikki xonali va uch xonali sonlarni mos ravishda **99,999** ga ko‘paytirishda ham bir xonali sonni 9 ga ko‘paytirish qoidasidan foydalanamiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida hisoblash malakasini shakllantirish maqsadida ko‘plab interfaol metodlarni ta’lim jarayonida foydalanishning imkoniyati mavjud. Bunday metodlardan boshlang‘ich sinf matematika darslarida o‘rinli foydalanish o‘quvchilarda hisoblash malakalarining o‘sishiga yaxshi samara beradi. Bundan tashqari ba’zi amallar ustida xususiy yo‘llardan foydalanish o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Usmonova.Z.I. Improving the Methodology for Forming Computational Skills in Primary.

2. Matematika. Umumiy o'rta ta'lif makkabining 2-sinfi uchun darslik, I, II, III qismlari. I.Repyova, Y. V. Zemlina. – Toshkent:” Novda Edutainment” nashriyoti, 2023.
3. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi.T.: -2005yil